



ISSN 2021-9752

2025-yil, iyun 12-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

27

IYUN

MATBUOT VA OAV XODIMLARI KUNI

Tabriklaymiz!





Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'lg'in Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldots Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,
Oqila To'raqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Zarnigor SOHIBOVA.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA TOPOGRAFIK
SHE'RLARNING O'RNI VA BADIY-ESTETIK VAZIFALARI 3
Gulbaxar TAVALDIYEVA.

TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA
TALABALAR OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH
YO'LLARI6

Sabohat BEGNAYEVA.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI
TA'LIM TIZIMIDAGI STRATEGIK AHAMIYATI9

Oqiljon MAVLONOV.

NAVOIY MA'NAVY OLAMIGA YO'L12

Shaxnoza XAKIMOVA. X.X.BERDIYEV.

BOSHLANG'ICH SINFD A ONA TILI VA O'QISH
SAVODXONLIGI DARSLIKHLARI TAHLILI15

TILSHUNOSLIK

Qahramon ESHBOYEV.

O'ZBEK O'QUV LUG'ATLARI VA ULARDA LEKSIKOGRAFIK
IZOHLASH MUAMMOLARI18

Gulrux JO'RABOYEVA. Asadullo TURSUNOV.

AFFIKSAL PLEONAZMNING YUZAGA KELISH
SABABLARIGA DOIR21

Gulasal A'ZAMOVA.

EMOTSIONAL DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING
LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI24

Shirin SHARASULOVA.

O'ZBEK TILIDA SO'Z O'YINLARI VA METAFORALARNING
SEMANTIK-SINTAKTIK TADQIQI MASALALARI27

Diloromxon SHOKIROVA.

GENDER LINGVISTIKA NUQTAYI NAZARIDAN BOLA
NUTQIDAGI DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQ
SHAKLLARI30

Nilufar ADIZOVA.

SAYYOHLIK MATNLARIDA INTERTEKSTUALLIK VA
ULARDA
TARIXIY BIRLIKLARNING QO'LLANISHI33

M.M.SHOKIROVA.

XORIJIY TIL O'RGANUVCHI TALABALARDA37
O'QIB TUSHUNISH MUAMMOLARINI KOGNITIV
YUKLAMA NAZARIYASI ASOSIDA TAHLIL QILISH37

Наврўза АЛИЕВА.	
НАУЧНАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ ЛАКУНАРНОСТИ В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ	40

Эльвина АДЖЕМИНОВА.	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МЕТАФОРА И МЕТОНИМИЯ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ	43

ADABIYOTSHUNOSLIK

Manzura JO'RAYEVA.	
AHMAD DONISH "NAVODIRUL VAQOYE" ASARINING JANR XUSUSIYATI	46

Dilfuza RAXMATOVA.	
Mahina AXROROVA	
TAZKIRACHILIK VA ADABIY TANQID	49

Xusan BERDIYEV	
IRSOLI MASAL VA UNING SINTAKTIK ASOSI	52

Dilobar JURAYEVA	
NURALI QOBUL IJODIDA	
ROMAN-PAMFLET JANRI	54

Тимур АЮПОВ.	
ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ РЕАЛЬНОСТИ В РОМАНЕ В.О. ПЕЛЕВИНА "ОМОН РА"	57

Фахриддин ЮЛБАРСОВ.	
ФУНКЦИИ ДЕТАЛЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ МИРЕ ЧЕХОВА	61

Яшин НИШАНОВ.	
МЕСТО И РОЛЬ ВОСПЕВАНИЯ САМОЙ ПРЕКРАСНОЙ ИСТОРИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ДУРБЕКА	63

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Shohista ZOITOVA.	
USLUBIY XOSLANGAN SO'ZLARNI O'QITISHDA QO'LLANADIGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARI	66

Nazokat YUSUFJONOVA.	
ADABIY TA'LIMDA VIRTUAL MUHITNI YARATISHNING ILMIY ASOSLARI	72

Shodmonoy ABDUG'ANIYEVA.	
TARBIYA DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHDAGI YANGI YONDASHUVLAR, MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	74

Marhabo ISMOILOVA.	
"BOBURNOMA"DA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI" MAVZUSIDAGI MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA O'QITISHNING YANGI USULLARI	77

Дилобар ИЛЬМУРАДОВА.	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ	79

Nargiza NAYIMOVA.	
REIMAGINING PART-TIME HIGHER EDUCATION: A TRANSITION TOWARD FULLY ONLINE SYSTEMS....	81

Azima KHAYRATDINOVA.	
DISTANCE LEARNING, EFFECTIVE APPROACHES TO DISTANCE LEARNING	84

TADQIQOTLAR

Nilufar KARIMOVA.	
ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA HAMDONA ISLOMIY-IRFONiy QARASHLAR	87

Olmos XURRAMOV.	
TARIXIY HIKOYALARDA BOBUR SIYMOSI	90

Ozoda MAMAZIYOYEVA.	
XX ASR BOSHLARIDA HAMD G'AZALLARINING SHAKLIY VA MAZMUNiy TAKOMILI	93

Zamira PORSIYEVA.	
JADID ADABIYOTIDA KITOBXONLIK MASALASI	96

Jobir AVRIDDINOV.	
ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON" ASARIDA MA'NAViy-MA'RIFIY QARASHLARNING BADIIY IFODASI	98

Qahromon DUSMURATOV.	
IQBOL MIRZONING "BONU" ROMANI EPISTOLYAR USLUBNING YORQIN NAMUNASI	101

Nodira NABIYEVA.	
ISHQNING AXLOQIY-ESTETIK IDEAL SIFATIDAGI LIRIK TALQINI	103

Dilfuza LATIPOVA.	
Sarvinoz NURALIYEVA.	
Dilrabo ISAKOVA.	
NEMIS ADABIYOTIDA KICHIK HIKOYA JANRI: SHAKLLANISHI, RIVOJI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR	106

Diloram ASHIRBAYEVA.	
KOREYS VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATLARIDA TUG'RUQ JARAYONI BILAN BOG'LIQ EVFEMIZMLAR	108

Ma XUEMEI.	
XITOIY TILINI CHET ELLIKLARGA O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR	112

Dilfuza UMIROVA.	
XITOIY TILI TA'LIMI TIZIMI: MENEJMENT, SIFAT NAZORATI VA SAMARADORLIK	115

Dilafruz DONIYEVA.	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'RQUV KOMPLEMENTLI MAQOLLARNING AKSEOLOGIK TADQIQI	118

Diana RUZMETOVA.	
Muxlisa BAXTIYOROVA.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ICHKI VA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	121

Nargiza MAMADJANOVA.	
KINEMATOGRAFIYA OLAMIDA PRAGMATIKA	124

Ravshan NORMATOV.	
HARBIY XIZMATCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI YUKSALTIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATI	126

Musalim NURIDDINOV.	
HARBIY XIZMATCHILARDA YUKSAK MA'NAViy-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	128

Nodira NABIYEVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
saidovnanodira9@gmail.com

ISHQNING AXLOQIY-ESTETIK IDEAL SIFATIDAGI LIRIK TALQINI

Annotatsiya: lirikada ko'ngil rozlari, qalb kechinmalari, dil iztiroblari aks etadi, shuning uchun unga turli tasniflar asosida yondashilmoqda. Xususan, hozirgi sher'shunoslikda "falsafiy she'riyat", "fikriy she'riyat", "meditativ lirika", "emotsional-intellektual lirika", "ijroviy lirika", "ayollar she'riyati" singari ifodalar urfga aylangan. Bu kabi turfa tasniflarning paydo bo'lishini adabiy jarayonning o'zi taqozo qilmoqda.

Kalit so'zlar: publitsistik lirika, intim lirika, simbolik-ramziy lirika, hajviy lirika, "falsafiy she'riyat", "fikriy she'riyat", "meditativ lirika", "emotsional-intellektual lirika", "ijroviy lirika", "ayollar she'riyati"

Annotation: the lyrics reflect the joys of the heart, the experiences of the heart, and the anguish of the heart, so it is approached on the basis of different classifications. In particular, expressions such as "philosophical poetry", "thoughtful poetry", "meditative poetry", "emotional-intellectual poetry", "executive poetry", "women's poetry" have become a tradition in contemporary poetry. The emergence of such classifications is required by the literary process itself.

Key words: journalistic lyric, intimate lyric, symbolic-symbolic lyric, comic lyric, "philosophical poetry", "thoughtful poetry", "meditative lyric", "emotional-intellectual lyric", "executive lyric", "women's poetry"

Аннотация: лирическая поэзия отражает чувства сердца, эмоции души, страдания сердца, поэтому к ней подходят на основе различных классификаций. В частности, в современной поэтике стали традицией такие выражения, как «философская поэзия», «интеллектуальная поэзия», «медитативная лирика», «эмоционально-интеллектуальная лирика», «исполнительская лирика», «женская поэзия». Возникновение таких различных классификаций продиктовано самим литературным процессом.

Ключевые слова: публицистическая лирика, интимная лирика, символично-символическая лирика, сатирическая лирика, «философская поэзия», «интеллектуальная поэзия», «медитативная лирика», «эмоционально-интеллектуальная лирика», «исполнительская лирика», «женская поэзия».

Kirish (Введение / Introduction).

Ma'lumki, zamonaviy she'rshunoslikda lirika janrlari quyidagicha tasniflanmoqda: Birinchisi, lirikaning an'anaviy janrlari: g'azal, ruboiy, tuyuq, to'rtlik, fard, qasida, marsiya, elegiya, epitafiya, ta'rix, sonet, muxammas va boshqalarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tasniflash. Ikkinchisi, mavzusiga ko'ra tasniflash: intim lirika, falsafiy lirika, ijtimoiy lirika, peyzaj lirikasi singari. Ushbu tamoyillar she'rshunos olimlar tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilmoqda.

Lirikada ko'ngil rozlari, qalb kechinmalari, dil iztiroblari aks etadi, shuning uchun unga turli

tasniflar asosida yondashilmoqda. Xususan, hozirgi sher'shunoslikda "falsafiy she'riyat", "fikriy she'riyat", "meditativ lirika", "emotsional-intellektual lirika", "ijroviy lirika", "ayollar she'riyati" singari ifodalar urfga aylangan. Bu kabi turfa tasniflarning paydo bo'lishini adabiy jarayonning o'zi taqozo qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods).

Lirikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning subyektivligi sanaladi. "Ammo, lirikadagi subyektivlik ijodkorning birgina o'z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishni

bildirmaydi. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa, o'z zamonasining faol fuqarosi, vijdoni va hakami ekan, uning asarlarida faqat umumxalq, ko'pchilik uchun muhim, xarakterli hodisa va kechinmalar in'ikos etsagina, keng kitobxonlar ommasining qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli lirika oldiga qo'yiladigan zaruriy talablardan biri – mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishidir. Bu – lirik asar ijtimoiy va axloqiy mavzular bilan cheklanib qolishi kerak, yoki mumkin, degan so'z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo'lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini ifoda eta olsa, shularning hammasi lirikaning mazmuniga kiradi"¹.

Muhokama (Обсуждение / Discussion).

Ma'lumki, XX asr o'zbek lirikasi namunalarini mavzu jihatdan tasniflash adabiyotshunoslik tomonidan o'rganilib, ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilgan: "Lirik asarning janrini aniqlashda she'rlarning mazmuni, ruhidan bo'rtib ko'rinishchi stilistik xususiyatlari va obrazli strukturasi kelib chiqish lozim. Ana shu prinsiplar asos qilib olinsa, lirika janrlarini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. XX asr o'zbek lirikasida quyidagi janrlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Publitsistik lirika. 2. Intim lirika. 3. Simvolik-ramziy lirika. 4. Hajviy lirika. Lirik poeziyadagi bu janrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi"². Mazkur prinsipni olim E.Xudoyberdiyev ma'qullamagan holda o'z qarashlarini bayon etgan: "Bunday prinsip mazkur adabiy turni falsafiy lirika, vatanparvarlik lirikasi, siyosiy yoki grajdanlik lirikasi, muhabbat lirikasi, tabiat lirikasi kabi ko'rinishlarga bo'lishni taqozo etar edi. Bu prinsip lirik asarlarning barchasini qamrab olishga, ko'p tomonlama tasnif qilishga urinishning natijasi edi. Biroq bu prinsipni maqsadga muvofiq deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki, uning qo'llanilishi natijasida

masalaning murakkab tomonlari e'tibordan chetda qolib ketadi"³.

Natijalar (Результаты / Results).

She'riyat maydoni bepoyon gulzorga o'xshaydi. Bu gulzorda rang-barang gullarning borligi dilni quvontiradi. She'riyat bo'stoni ham xuddi shunday. Unda erkak va ayol ijodkorlar o'z ko'ngil rozlarini she'rga solib o'quvchiga yetkazadilar, ko'ngillarini poklaydilar. Qadim she'riyatimiz tarixi bundan guvohlik beradi. Aslida, erkaklar she'riyati yoki ayollar she'riyati deb chegara qo'yish, bizning nazaramizda ham, g'ayritabiyyoq. Har qanday she'rning zimnida inson va uning tuyg'usi turadi. Ammo Ollohning o'zi bu ikki jinsni tafovutli qilib yaratgan ekan, albatta, bunda katta sir-sinoat mavjudligi izoh talab etmaydigan haqiqat. Shu ma'noda, erkak va ayollar she'riyati, undagi ifoda yo'sinlarining ayrichaligi, obrazlarning o'ziga xosligini o'rganish muhim ahamiyat kasb eadi. Buyuk Navoiyning ishqiy g'azallari hali hanuz dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Navoiy ishqsiz hayotni tan olmaydi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod bilan Xisrav dialogini eslashning o'zi kifoya:

Dedi: Qaydin sen ey, majnuni gumroh?

Dedi: majnun vatandin qayda ogoh!

Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum!

Dedi: Andin joh ahli mahrum!

Dedi: bu ishdin sitig'for qilg'il!

Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur.

Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur!

Dedi: Ol ganj mehrin qo'y nihoni!

Navoiyning fikricha, ma'naviy qashshoq kimsalargina ishqni boylik, mol-dunyo bilan o'lchaydilar. Muhabbatni savdolashish ma'naviy ko'rlikdir. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham ishq baland pardalarda kuylanadi. Ranj, alam, qayg'u chekuvchi oshiqlarning sarguzashtlari orqali davr fojialari, qalb kechinmalari aks ettiriladi. Oshiqlarning ichki kechinmalari, dard-alamlari yuksak pafos bilan tasvirlanadi. Boshdan-oyoq psixologik tasvirlar bilan to'liq asarning ruhi shu qadar kuchliki,

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", NM1U, 2005. 173-bet.

² Шукуров Н., Хотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 181.

³ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Маданият ва санъат институтлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 209.

o'quvchi ham beixtiyor shu g'am-g'ussalarga o'zi yo'liqqandek his qiladi, majnunga hamdardlik sezadi. Samimiy ishqni tushunmagan g'ofillar unga qilich va adovat bilan qarshilik qiladilar. Haqiqiy sevgi gunoh sanalar edi. Majnun ishq uchun badnom etildi, tahqirlandi, gunohkor qilindi. Bu ma'rifat bilan jaholat o'rtasidagi asriy kurash talqini o'laroq maydonga chiqdi. Bu asriy isyon edi. Ushbu isyonda "Ishq elining shohi" Majnun, "Husn osmonining mohi" Layli halok bo'ldilar, ammo ularning ishq asrlar osha kuylanmoqda. Bu esa, ishqqa qo'yilgan haykaldir.

Xulosa (Заключение / Conclusion).

Muqaddas dinimizda ham ayol zotiga alohida ehtirom ko'rsatilgan. "Qur'on"da "Niso" surasining mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. "Niso"

degani "ayollar" degan ma'noni bildiradi. Mazkur surada ayolning jamiyatdagi o'rni, roli, haq-huqqulari, burch va majburiyatlari aks etgan. O'loq, birinchi navbatda, ayolga onalik maqomini yuklagan. Onalik maqomi eng ulug', eng sharaflil, eng mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Ayol – ona, ayol – farzand, ayol – jufti halol, ayol – opa-singil singari maqomlarda turadi. Shunday ekan, ayolning jamiyatda xizmatlari ulug'. Muborak hadislarda "Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir" deya erkak hamda ayollarning ilm olishlari farz qilib qo'yilgan. Shuningdek, ayol ayol hamdir. Uning go'zal qalbi, nozik ko'ngli bor. U sevilishga, sevilishga haqli. Ayol ilk aytgan allasidan boshlab o'z ko'ngil kechinmalarini qo'shiq, she'r shaklida izhor qiladi. nozik iqtidorini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Словарь литературоведческих терминов / Редакторы-составители: Л.И.Тимофеев, С.В.Тураев. - М.: Просвещение, 1974. - С. 175.
2. Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 173-237.
3. Шукуров Н., Хотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 181.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Маданият ва санъат институтлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 209.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2013. 120-bet.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, "O'qituvchi" NM1U, 2005. 173-bet.
7. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 88-bet.
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2676. www.ziyouz.com kutubxonasi.
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. PEDAGOGS, 57(1), 132–138.